

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

REFERAT

**Mavzu: Davolash profilaktika
muassasasining dorixonasi**

Bajardi: Farmatsiya fakulteti
2 kurs 9/1 guruh talabasi
Mirxakimov Nodir

Tekshirdi: N.Chinibekova

Toshkent-2015

Reja

1. “Davolash profilaktika muassasalari dorixonalari ishini yaxshilash to’g’risida”gi buyruq.
2. “Sog’liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi DPM dorixonalarida steril dorilar tayyorlashni tartibga solish to’g’risida”gi buyruq va uning ahamiyati.
3. Davolash profilaktika muassasasi dorixonasi va uning asosiy vazifalari.
4. DPM ixtisosi va tuzilishiga ko’ra undagi dorixonalar tasnifi.
5. Dorixona mudiri zimmasiga yuklanadigan vazifalar.
6. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dori-darmonlarni saqlash qoidalari.
7. Shifoxona dorixonalarining xonalari.

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligining 2001 yil 5 sentyabrda chiqqan “Davolash profilaktika muassasalari dorixonalari ishini yaxshilash to’g’risida”gi 400 – sonli buyrug’iga binoan shifoxona dorixonalari o’z faoliyatlarini amalga oshirishlari lozim. buyruqqa asosan barcha davolash profilaktika muassasalari dorixonalarida tayyorlanayotgan dori vositalari sifatini nazorat qilishni standart talablariga muvofiqlashtirish, hamda davolash profilaktika muassasalari shifoxonalari tarkibidagi dorixonalarda tayyorlangan dori vositalari bilan belgilangan tartibda xuddagi barcha DPMLarni ta'minlash choralari ko’rilishi shart. Undan tashqari buyruqda aytilishicha dpm dorixonalari faoliyatini sanitariya qoidalari va me'yorlari asosida amalga oshirish ishlari doimiy nazorat qilinishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligining 4 oktyabr 2001 yilda chiqqan “Sog’liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi DPM dorixonalarida steril dorilar tayyorlashni tartibga solish to’g’risida”gi 444 – sonli buyrug’i amaliy va nazariy ahamiyatga ega. respublika xududida joylashgan davolash profilaktika muassasalari ichki dorixonasida steril dorilar tayyorlash shart-sharoitlarini yaratish bo’yicha tavsiyanoma berilgan. Unda davolash profilaktika muassasalari ichki dorixonasida steril dori vositalari tayyorlashda ishlatiladigan zarur asbob-uskuna va jihozlar ro’yxati keltirilgan. Buyruqda dori vositalari tayyorlash hamda tahlil qilish jarayonida

foydalaniladigan me'yoriy hujjatlar, dorixonalarda tahlil ishlari uchun ishlatiladigan indikatorlar, reaktivlar va erituvchilar ro'yxati berilgan.

Davolash profilaktika muassasasining dorixonasi haqidagi nizomga binoan shifoxona dorixonalari o'rinlarining soni 100 va undan ortiq bo'lgan davolash profilaktika muassasalarida tashkil etiladi.

Davolash profilaktika muassasasining dorixonasi ushbu muassasaning bo'limlari bilan bir xuquqda ishlab, ularni dori-darmon va boshqa tibbiyot mollari bilan ta'minlab turadi. Dorixonaning ishlash vaqti davolash profilaktika muassasasining bosh vrachi tomonidan belgilanadi. Dorixona bevosita shifoxonaning bosh vrachiga bo'ysunib, bo'lim mudirlari va vrachlar bilan uzviy bog'lanib ishlaydi.

Davolash profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davolash profilaktika muassasasi bo'limlaridan dori-darmonlar va boshqa tibbiyot mollari uchun talabnomalar qabul qilib olish;

- qabul qilingan talabnomalar bo'yicha sog'liqni saqlash vazirligi amaldagi buyruqlari asosida belgilangan tartibda dori turlarini tayyorlash, ularni sifatini nazorat qilish, yorliqlash va tegishli bo'limlarga tarqatish;

- davolash profilaktika muassasasi bo'limlarini dori vositalar ishlab chiqaruvchi korxonalaridan va ta'minotchilardan shartnoma asosida ;davlat reestriga kiritilgan dori vositalari, bog'lov materiallari, bemorlar parvarishida ishlatiladigan buyumlar, sanitariya va gigiena buyumlari, dezinfektsiya vositalari hamda tibbiyot mollarini va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash;

- shifoxonadagi bo'limlari va xonalaridagi dori vositalari bog'lov materiallari, bemorlar parvarishida ishlatiladigan sanitariya va gigiena ashyolari, dezinfektsiya vositalari va boshqa tibbiyot buyumlarini amaldagi me'yoriy xujjatlar talablari darajasida saqlanishi, ishlatilishini nazorat qilish va yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish uchun rahbariyatga axborot berish;

- tibbiyot xodimlariga farmatsevtika yangiliklari, dorixonada mavjud bo'lgan, yangi dorilar va ularni ishlatilishi xaqida axborot berish;

- davolash-profilaktika muassasasi ixtisosi va ehtiyojiga ko'ra dori vositalari va tibbiyot buyumlari zahirasini doimiy ravishda to'ldirib borish;

- dorixonada mavjud bo'lgan dori vositalarni saqlashda amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlariga hamda farmatsevtika talablarga qat'iy rioya qilish;

davolash profilaktika muassasalarining ixtisosi va tuzilishiga ko'ra undagi dorixonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- umumiy turdagi shifoxonalarning dorixonalari (aralash, ko'p ixtisosli shifoxonalar);

- ixtisoslashtirilgan shifoxonalarning dorixonalari (sil, infeksiyon kasalliklar shifoxonalari, tug'ruqxonalar);

- ruxiy asab kasalliklari shifoxonalari dorixonalari;

- maxsus klinik shifoxonalari dorixonalari.

- dorixona ishini boshqarish oliy farmatsevtika ma'lumotiga ega bo'lgan va mutaxassisligi bo'yicha kamida 3 yil ishlagan malakali shaxsga ruxsat etildi;

- dorixona mudiri dpm rahbari tomonidan o'rnatilgan tartibda ishga tayinlanadi va ishdan bo'shatiladi, dpm rahbariyati va dorixona mudiri o'rtasida moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuziladi.

- DPM dorixonaning rahbari va xodimlari belgilangan tartibda 5 yilda bir marotaba malaka oshirish kurslarida o'qishlari kerak.

Dorixona mudiri zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- davolash profilaktika muassasasi bo'limlaridan talabnomalar qabul qilib, dorilarni tayyorlab, sifatini nazorat qilib, ularni tarqatishni tashkil etish;

- o'z vaqtida DPM bo'limlarini dori-darmonlar va tibbiyot mollari bilan ta'minlashni uyushtirish;

- dorixonadagi dori-darmonlar va tibbiyot mollarini ularning xossalriga qarab davlat farmakopeyasining va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda saqlashni tashkil qilish;

- dorixona sanitariya tartibi qoidalariga rioya qilish;

- dori vositalari sifatini nazorat qilib, uchragan xatoliklar to'g'risida bosh vrachga yoki uning muoviniga xabar berish;

- xodimlarning malakasini oshirishni tashkil etish;

- tasdiqlangan shakllarda o'z vaqtida hisobotlar tuzib topshirish.

Zaharli dori-darmonlarni qulflanadigan temir shkaflarda va yog'ochdan yasalgan, qulflanadigan shkaflarda saqlanadi, narkotik dorilar faqat temir sandiqlarda va temir

shkaflarda qulflangan holda saqlanib, eshiklarni ichkari qismida “A” va zaharli dorilarni bir marotabalik hamda sutkalik yuqori iste'mol qilinadigan dozalari yozilgan ro'yxati bo'ladi.

Kuchli ta'sir etuvchi Dori-darmonlar “B” ro'yxatida bo'lib, alohida qulflanadigan shkaflarda saqlanadi. “A” va “B” ro'yxatdagi temir sandiqlar va shkaflarning kaliti tegishli javobgar shaxsda bo'lishi shart.

Zaharli dori berilgan nakladnoy – talabnomalar shifoxona dorixonasida 2 yil davomida, narkotik dorilar 5 yil davomida va qolganlari esa 1 yil davomida saqlanadi. Shu muddat o'tgandan so'ng yuqori tashkilotlar tomonidan hujjatlarni taftish o'tkazilgandan keyin tegishli tartibda yo'q qilinadi.

Shifoxona dorixonalarida savdo zali bo'lmaydi, chunki u aholiga xizmat qilmaydi. shifoxona dorixonalarida quyidagi xonalar mavjud bo'ladi:

1. Ishlab chiqarish xonalari - (kutish xonasi, retseptlarni qabul qilish xonasi, retseptura jo'natish xonasi, assistentlar xonasi, darchali aseptika xonasi, in'ektsiyali eritmalar rasmiylashtirish xonasi, idishlarni qayta yuvib sterillash xonasi, qadoqlash xonasi, farmatsevt analitik xonasi, tozalangan suv olish xonasi, mollarni ochish xonasi).

2. Saqlash uchun xonalar - (tayyor dorilar, quruq va suyuq dorilar, bog'lov materiallari, xirurgik asboblari, vrachlik buyumlari, olovdan xavfli narsalar, dezinfektsiya vositalari, kislotalar xonasi, dorivor o'simliklar, idishlar, yordamchi materiallar xonasi, muzlatuvchi kameralar xonasi).

3. Maishiy xo'jalik xonalari – (ekspeditsiya xonasi).

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soglikni saqlash vazirligining 2001 yil 5-sentyabrdagi 400-sonli buyrugi “DPM dorixonalari ishini yaxshilash tugrisida”

2. O'zbekiston Respublikasi Soglikni saqlash vazirligining 2001 yil 4-oktyabrdagi 444-sonli buyrugi “sog'likni saqlash vazirligi tasarrufidagi DPM dorixonalarida steril dorilar tayyorlashni tartibga solish tugrisida”

